

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «A» kurs talabasi

Madrahimova Shukurjonning
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanidan

«Muqimiy hajviyotida ijodkor mahorati»
mavzusida tayyorlagan

R E F E R A T I

NUKUS – 2015

R E J A :

1. Kirish
2. Muqimiy lirikasida ijtimoiy-siyosiy hajviyot.
3. Muqimiyning yumor yaratish mahorati.
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Muhammad Aminxo`ja Muqimiy (1850-1903) ko`p asrlik adabiyotimiz tarixidan ustoz lirik shoir, zabardast satirik sifatida mustahkam o`rin olgan. Uning barakali ijodi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o`zbek adabiyotining demokratik xarakter egalashida hal etish omillaridan biri bo`ladi.

Muqimiyning hayotiy lirikasi, eng yaxshi lirik va yumoristik asarlari, mashhur «Sayohatnomalar» «shu davr adabiyotimizning yetakchi goyaviy-estetik yo`nalishini belgilovchi, uning bosh mazmunini tashkil etuvchi yetuk adabiy-badiiy obidalar darajasiga ko`tarilgan Muqimiyning ijodi chin ma`noda halqchildir-u ezilgan mehnatkash ammo, xonavayron qishloq dehqonlarining sodiq vakili, oddiy inson his tuygularining asl kuychisi bo`lib maydonga chiqdi: shoir ish xalqchilik pazittsiyasidan ularning olami qorongu hayotini, dardu tashvishni, orzu-intilishlarini realistik buyoqlarda yuksak badiiylilik bilan ifodaladi, yorqin turmush, «yaxshi zamon» keladi-deya basharot qildi.

Muqimiy qoldirgan adibiiy merosning katta bir qismini lirika tashkil qiladi. Ijodiy faoliyatini ishqiy gazallar yozish bilan boshlagan shoir umrining oxirigacha bu janrda qalam tebratib o`zbek poeziyasiga ilgor yo`nalishning taraqqiyotiga jiddiy ta`sir ko`rsatdi. Chuqur gumanizm va optimistik ruh, hayotsevarlik va jo`shqin ehtiros, haqqoniylik va samimiylik, o`ynoqilik va musiqiylik shoir yaratgan gazal murabba` muxammaslarning goyaviy-badiiy mazmunini belgilaydi.

Muhammad Aminxo`ja Muqimiy, ayni zamonda ko`plab ham goyaviy, ham badiiy barkamol satirik va yumoristik asarlar yaratdiki, biz ushbu risolada shoir ijodiy faoliyatining ona shu sohasi haqida fikr yuritishni maqsad qilib qo`yganimiz.

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o`zbek adabiyotida satirik yo`nalish adabiyotimizning o`tmishi davrlariga nisbatan nihoyatda taraqqiy etdi, boyidi. Bu-iqtisodiy hayotida va ijtimoiy-falsafiy ongida yuz bergan jiddiy siljishlarga muvofiq va ular bilan to`la izohlanarlik bir holdir. O`lkada keng yoyilgan rus ijtimoiy ongi, madaniyati, fan-texnikasining, hayotdagi ijobiy o`zgarishlarining, ta`siri ostida xalq ongida birinchi navbatda, uning heshqadam namoyadalari dunyoqarashda turmush

masalalariga, jamiyat va tabiat hodisalariga yangicha munosabatning tugilishi, bir tomondan, ikkiyoqlama ekpluatatsiyaning, adolatsizlikning kuchayib ketishi kapitalistik munosabatning salbiy tamonlarining tabora ko`proq yuzaga chiqa berish, hukmron sinflar va tuzumning tartib qoidalaridan norozilikning zo`rayishi, ikkinchi tomondan, xalqning intilishi va orzu-umidlariga yaqin turgan demokratik adabiyotda satiraning, satirik yo`nalishning keng, rivojlanishiga zamin hozirladi. Satirik y o`nalish, davr lirikasining katta ahamiyatini kamsitmagan, holda aytish mumkinki, ma`rifatparvarlik yo`nalishi bilan birlikda, o`zbek adabiyoti qiyofasini belgiladi, uning mahiyatini ifodaladi.

Chuqur goyaviy va xalqchilik, zamon ruhi, hayotiy materiallar bilan mustahkam bogliqlik, davrning qator oktual masalalarini keskin holatda va xalq manfaati nuqtai nazardan hal etish realistik metodning ustunligi va badiiy kamolat, aniq ijobiy idea va uning ziddiga nisbatan murosasizlik, til soddaligi va janr rang-barangligi adabiyotdagi satirik yo`nalishning o`ziga xos fazilatlar darajasiga ko`tarilgan.

Davr o`zbek satirasining ana shunday bo`lishligidan Muhammad Aminxo`ja Muqimiy ijodining ahamiyati benihoya katta bo`ladi-ken Zavqiy bilan birgalikda yangi satirik yo`nalishining asoschisi va etakchi namoyandasi sifatida barakali ijod qildi. Muqimiy lirik shoir sifatida qanchalik mashhur bo`lsa, kuchli satirik sifatida ham shunchalik shuhoat qozongan edi. Shoir ijodiy merosini hajm jihatidan katta qismini tashkil etuvchi satira va yumarlari mavzui va shakl jihatdan rang-barang bo`lib o`sha davr sharoitining juda tomonlarini qamrab oladi.

MUQIMIY LIRIKASIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAJVIYOT

Muqimiy satiralari mazmun jihatdan boy, mavzu jihatdan rangbarangdir. Aytish mumkinki, bu satiralar jamiyat hayotining hamma asosiy tomonlarini qamrab oldi, ekspluatator sinflarga hos boʻlgan hamma ijtimoiy tabaqalarning tipik obrazlarini yaratdi. Oʻzbek demakratik adabiyotida yaratilgan ajobiy satsial tiplar galeriya, dastavval, Muqimiy qalamiga mansubdir. Bu satsial tiplar galeriyasidan ekspluatator sinflarning hamma tabaqalarini, kolonizator-amaldorlarni, mahalliy boylarni, tekinxoʻr-parazit ruxoniylarni, savdogarlarni, sudxoʻrlarni va boshqalarni topish mumkin.

Muqimiy satiralarining markazida “Tanobchilar” sheʼri turadi. Bu satira oʻzining, temasi turmushni aks ettirishdagi badiiy umumlashtirma kuchi bilan demakratik adabiyotdagi satiralar ichida alohida oʻrin tutadi. Unda kolonizatorlik tartiblari hukmronlik qilgan davrda chor amoldarlarning mehnatkash xalqqa qilgan zoʻrlilik, zulmlari jonli, hayotiy lavhalarda, tipik shaxslar faoliyatida tasvir qilinadi.

“Tanobchilar” satirasi zulmga uchragan oddiy bir dehqonning hikoyasi tarzida yozilgan. Dehqon oʻz boshiga tushgan kulfatlar va zurovonlikni hikoya qilishga kirishar ekan bunday deydi:

Boʻldi taajjub qiziq hangomalar
Arz etaayin endi yozib nomalar.

Oʻn ikki oyda keladur bir tanob
Oʻzgalarga rahotu menga azob.

Sulton Ali Xoʻja, Hakimjon ikov
Biri xotun, birisi boʻldi kuyav

Osh esar oʻtada sarson ilik,
Xoʻja chiroq yogi, Xokimjon pilik.

Bir-biriga solishurlar o`rin,
Erta-yu kech o`pishib ogiz-burun

Sallalari boshida oq savet
Ko`rpacha tagda hamma vaqt uch qavat.

Qaysidir qishloqqa tushar otidin
Elni yigib, voqif etar zotidin.

Derki: Ko`zingga hali kol jo`jaman,
Maxtumi a`zamlik o`zim xo`jaman.

Xo`sh bu “tanab” voqeasi qanday voqea? Chor kalanizatori tomonidan o`rinatilgan tarbiyaga ko`ra har yili dehqonlar o`z ekinini ekib bo`lganlaridan so`ng, ekin maydonini o`lchash va shunga qarab soliq solish uchun qishloqlarga amoldorlar chiqar edilar. Ekin maydonlarini tanab bilan o`lchaganliklari uchun ular “tanobchilar” deb yuritilar edi.

“Tanobchi” nomi bilan chiqqan koloniial byurokatik apparatining vakillari istaganlaricha zo`rlik o`tkazar, paroxo`rlikki avj oldirib, boylarga yon bosar kambaqallar erini o`lchashda turli firibgarliklarni ishlatar xalqni katta soliqlar bilan qiynar edilar. “Tanob” orqali chor hukumatining ogir soliq siyosati amolga oshirilar edi. Xalq hayotining eng kulfati ko`rinishlardan biri bo`lgan mana shu voqea 68 misradan iborat katta “Tanobchilar” she`rida aks etgan. Muqimiy bu she`rida mehnatkash dehqonlarning ogir ahvolini ko`rsatish bilan birga, chor malaylari bo`lgan mahalliy amaldorning jirkanch tipik qiyofasini chizib beradi.

“Tanobchilar” satirasining asosiy persanajlari Sulton Alixo`ja bilan Hakimjonlardir. Ular zo`rlik va byurokratizm asosida qurilgan kalanizatorlik apparatining timsoli sifatida harakat qiladilar. Poraxo`rlik adolatsizlik, har qanday tubanlik ular qiyofasi uchun xarakterli bo`lgan belgilardir. Muqimiy bu amaldorlarni

yolgiz halida emas balki o`z “xo`jayinlari”ga suyangon holda, ularga orqa qilgan holda ular nomidan harakat ettiradi, ya`ni satirada tipik sharoit yaratadi.

Bu ikki amaldorning xalqni talash uchun “ittifoq” bo`lib, til biriktirib olganlarini Muqimiy juda ustilik bilan halq iboralari orqali quyidagicha ko`rsatadi:

Sulton Alixo`ja, Hakimjon ikov,
Biri xotun, birisi bo`ldi kuyov.

Ikkalasi bo`ldi chunon ittifoq
Go`yo xayol aylaki, qilmay nifoq.

Osh esalar o`rtada sarson ilik,
Xo`ja-chiroq, Hakimjon pilik.

Bundan keyingi misralarda Hakimjon bilan Sulton Alixo`janing yer o`lchash uchun qishloqqa chiqib kelishi, o`zlarining nasl-nasablari, amallari, huquqlari to`grisida do`q o`rib “xizmatimizni qilinglar bilib!”-deb pora talab qilish, pora olgandan so`ng ham, dehqonlar erini ortiqcha- “duchordan” o`lchab ularga zulm o`tkazish tasvirlanadi va shular orqali ularning tipik xarakteri ochiladi.

“Tanobchilar” satirasi o`zining temasi va mazmuni e`tibori bilan zo`r ma`rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan asardir. Uning persanajlari Hakimjon bilan Sulton Alixo`jalar Muqimiy yaratgan sotsial tiplarning eng muhimlaridan bo`lib, ular chor hukmumati o`rnatgan kolonizatorlik rejaimining jirkanch mohiyatini o`zlarida to`liq gavdalantiradilar.

Muqimiyning chor chinovniklari va mahaliy amaldorlarni fosh qilishga bagishlangan satirik asarlari ichida “Saylov” she`ri ham alohida diqqatga sazovardir.

Adabiyot tariximiz uchun “saylov temasi” yangilikdir. Zotan, saylovning o`zi turmushimizda ijtimoiy hayotimizda yangi hodisa edi. O`lkaga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi natijasida ro`y bergan hodisalarning biri davlat apparatlarida saylov sistemasining joriy qilinishi edi. Chor hukumati tomonidan

o`rnatilgan tartibga binoan quyi mansablarga-mingboshi, yuzboshi, qozi va boshqa mansablarga odam tayinlash saylov yo`li bilan o`tkazilar va unga “xalq idora usuli” degan “jarangdor” nom ham berilgan edi. Bu muhim satsial hodisa demakrotik adabiyotda keng aks etdi va bu temada qator satirik asarlar yozildi, ularning bir qismi o`z vaqtidagi vaqtli matuotda ham bosilib chiqdi. Maktablarda Muqumiy she`rining qachon yozilganini aniqlashda yordam beradigan bir ma`lumot uchraydi: shoir Muqumiy bu temada yozgan asarida mingboshlar saylovi haqida so`zlab kelib, she`rning oxirida saylov tarixiga oid quyidagi izohni beradi: “Maxfiy qolmasukim, ranji gami voy harflar tarix bo`lurki, bu saylov shu sanada 1310 hijriyda edi”. Bu izohdan ma`lum bo`lishicha Qo`qonda mingboshlar saylovi 1310 hijriyda, melodiylar bilan 1892 yilda bo`lib o`tgan. Muqimiyning “Saylov” satirasi ham xuddi shu yili yozilgan bo`lishi haqiqatdan uzoq bo`lmasa kerak.

Muqimiy tomonidan adabiyotga olib kirilgan bu tema boshqa demokratik shoirlar davon ettirdi va adabiyotda keng aks edi. Saylov voqeasining xalq hayotida qanchalik katta o`rin tutishi Hamza Hakimzoda Niyoziyning bu temaga qayta-qayta murojaat qilganidan ham ochiqko`rib turadi. Hamza Muqimiy traditsiyasini davom ettirib, bu temada maxsus asar-“Burungi saylovlar dramasini yozdi. Bu shuningdek, ila xizmatchi” dramasida Hamza kolonial qullik hukmronligi davridagi saylovlarning xalq boshiga keltirgan kulfatlarini chuqur badiiy lavhalarda, unutilmas obrazlarda tasvirlab beradi.

Kapitalistlar, kolonizator savdogorlar va mahalliy boylarning kirdikorlarini ochib tashlovchi Muqimiy satiralarining yana biri “To`yi Iqon bachcha”dir. Ma`lum syujet asosida qurilgan bu satira Iqondagi gumashta bilan Toshkentdagi xo`jain o`rtasidagi, o`tkazilajak to`y haqida “sim qoqish” ya`ni telegramma berish voqeasi bilan boshlanadi. Toshkentlik boy telegrammasida aytiladi:

Men rizomas, kishiga non bersang

Yo tovuq saqlasangu don bersang

Tuynugingdin agarda chiqsa tutin

Munda ber dastmoyalarni butun.

Bo`lsa umidingiz agar bizdin

Manfaat ko`rmasin birov sizdin.

Boyning ko`rsatmasi Inqondagi gumashta uchun dasttur bo`ladi. To`y harakatlari osh-suv, dasturxon va boshqa mulozamatlar shu qadar qisqartirildiki, zotan, ken harakatlarni to`y deydigan o`rni qolmaydi. Masahat olishga uch kishi to`yga etti kishi aytili ularga «qotgan, mogar, otgan» nonlardan dasturxon yozildi: Muqimiy to`yning hisob-kitob qilinganini, jam`i harajat o`ttiz `uch tanga bo`lganini aytadi va qkenqonlik gumashtaga el yurt nomidan «uyatsiz» degan baho beradi. muqimiy gumashta obrazini zo`r badiiy mahorat bilan chizadi. Satirada keltirilgan epizodlar oyoq uchida yurib ish bitirish, eng ichida to`yga odam aytish, ovoz chiqarmay osh damlash, uchoq boshida yo`talganning orqasiga kosov bilan tushurish va boshqalar bir maqsad uchun-gumashta obrazini yaqqol ko`rsatish uchun xizmat qiladi. Satiradigan hamma elementlar o`zining ma`lum goyaviy yo`nalishga, vazifasiga, nagruzkasiga ega bo`lish bilan birga, ayni zamonda, satiraning umumiy vazifasiga bo`ysunadi, uning goyasini ochishga xizmat qiladi. Shu ma`noda satira goyaviy va badiiy jihatdan, etuk va kompozittsion, tuzilishi jihatidan tugallangan asardir, deyish mumkin.

MUQIMIYNING YUMOR YARATISH MAHORATI

Muqimiy bu sohada ham klassik adabiyotimizning ilgor an`analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, xalq ogzaki ijodidan ko`p va barakali ta`sirlandi. Shoir yumorlarida, Alisher Navoiy, ayniqsa, Maxmur ijodining izlari yaqqol ko`rinadi. Muqimiyning yumoristik asarlariga xos bo`lgan umum xususiyat sifatida shuni aytish mumkinki, ularning mohiyatini qo`pol, qahqaqa, begaraz hushchaqchaqlik, mazmunsiz mutobiba, kulgi uchun kulgi belgilimaydi. Aksincha, shoir qo`lida kulgu ko`p o`rinlarda hayotdagi qaloq, chirilgan, taraqqiyotga to`siq bo`lib turgan govlar, shaxslar ongi va tabiatidagi ajizlik nuqsonlari, xunuk fe`l-atvor va o`rinsiz xatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, «turtib o`tish» vazifalarini ham o`taydi, illat va kamchiliklarni engil tanqid etishda bir qurol vazifasini ham bajaradi. Albatta, kulguning ob`ekti va yo`nalishi, darajasi va maqsadi shoirning satirik asarlaridagi fosh etuvchi kulgidan jiddiy farq qiladi. Yumoristik asarlarda kulgu o`z xarakteri e`tibori bilan keskin mayna etuvchi zaharxonda emas, avtor «meni» ham qat`iy ters pozitsiyada turmaydi unda iliqlik va samimiylik, muloyimlik va ochiq ko`ngillik sezilib turadi, ba`zan esa yaxshi niyat bilan achinish va tashvish tortish, shuningdek, hamdardlik ohanglari eshitiladi.

Shoirning «Devonamen» va «ko`samen» radifli tsikl yumorlarida bu hususiyatlari, ayniqsa ravshan ko`rinib, ularda ayrim jismoniy kamchiliklardan ham bo`lmagang shaxslar ustidan kulgu qo`zgatiladi. Ammo, bu kulgu uzib oluvchi, zahar aralash shoirmisar etuvchi kulgu emas-xalq ogzaki ijodi, jumladan latifalari, hazil-mutoibalari ruhi ufurib turgan bu kulguda samimiylik, muloyimlik, begaraz quvnoqlik old o`rinda turadi. Bunda mualifning hayrixoh pozitsiasining roli juda katta.

Bu tsikl asarlarning manologi tarzida yozilgan. Ularning yumoristik mohiyati, qo`zgatilayotgan kulguning begarazli xarakteri bu monologlarning satirada kuchli effent beruvchi salbiy ob`ektni «o`zini gapirtirish» «o`z-o`zini fosh ettirishi» priyomidan tubdan farq etishida ham ko`rinadi. Bularda unday fosh etish yo`q-chunki yumorist shoir ob`ektlarni salbiy deb hisoblaydi. Xuddi shundan bu

yumorlarda me`yori saqlanadi, xarakteri muloyimlashadi, hatto ba`zan avtorning xayrixohligi ustunlik ham qildi. muqimiyning yumorlarida oddiy kishilarning qiyin iqtisodiy ahvoliga ochinish, ko`pgina talantli kishilarni ma`naviy mayib etgan, qayguli hayotga mahkum qilgan o`sha tuzumdan norozilik mativlari ham eshittilib turadi. Muqimiy bir ham eshittilib turadi. Muqimiy bir necha o`nlab yumoristik asarlar o`zgan. Ularning mavzulari rang-barang bo`lganidek, muallifning kuzatgan maqsad-xiyati ham turlicha ko`ra, ulardagi kulgu me`yori va darajasi, xarakteri va yo`nalishi ham bir xil emas. Bu holat ularning har birini maxsus taxlil etish, jumladan kulgining yuzaga chiqish mexanizmini konkret kuzatish zaruratini tugdiradi. Bunday imkoniyatga ega emasligimizdan, shartli ravishda ayrim guruhlariga bo`lib, bo`zi mulohazalarimizni bayon etish bilangina cheklanamiz. O`lkamizning barcha yirik shaharlarida madaniy hayot birmuncha jonlanib ketdi, obodonchilikka, nisbatan ahamiyat berila boshlandi, yangi tipdagi imoratlar quruldi, tosh yo`llar yotqizildi, «yangi shahar» lar paydo bo`la boshladi.

Muqimiyning bir qator yumorlarida ano shunday yangicha munosabatning samarasi sifatida yuzaga kelgan. «Aravangn», «Araba qo`rsin» «Loy» kabilar shular jumalasidan. Bu asarlar kirib kelayotgan yangiliklarni xalq hayotiga tezroq tadbiiq etilishida ma`lum rol` o`ynagan deyish mumkin. Masalan: shoir kulgi vositalari orqali sholdiroq, noqulay aravani xalq latifalari ruhida tanqid etib, yana kulgi bilan «prujinalikalyaska»ni targib qiladi. «Bezak» «Yomon bezak» yumorlarida esa shoirning o`zi ko`p marotaba ogrigan kasalikdan inoyat o`ziga xos bir uslubda juda jonli ifodalanadi.

«Dar mazammati iskabtopar» yumorida esa Muqimiy bezak va turli xil boshqa marazlarni tarqatuvchi hashorat-chivindan nolib, kuladi. «Xalqqa azor» beruvchi, ming-minglab kishilarning hayotini xavf ostida qoldirgan kasalliklar sababchisi «qo`llarida payza bilan qoningni ichuvchi», «bachchagar iskabtopor» shoir tomonidan kulgi ostiga olinadi.

muqimiy yumorlari ichida ot mavzuida bir necha asarlar bor. Avvalo shuni aytaylikki, bu mavzu bizning adabiyotimiz uchun ma`lum, ma`noda «traditsion» dir. Gap shundaki, mashqur satirik Maxmur huddi shu qirchangi, nochor ot mavzuida

ajoyib bir yumor yaratgan. Har ikki shoir asarlari qiyosiy, tekshirilsa, yumorning o`kti, bayon qilish usullari va tartibidagi izchillik, kulgining o`tkirligi va misramamisra tadrijiy kuchaytirilishdagi umumiylik, hatto ko`pgina o`xshatish, mubolaga, qochirish va kesatiglarning monandligi va boshqa ko`p jihatlardan katta yaqinlik mavjudligini qayd etish mumkin.

Maxmur asarida bo`lgandek, Muqimiyning «O`lsun bu ot», muxammasida «Bu otingiz» «Hoji tilgrafchining oti to`grisida» va boshqa yumorlarida halqimizning o`tkir zehni, sof kulgisi, quvnoq tabiatining mevasi bo`lishi askiya, payrov, lof, mubogolarning ta`siri juda katta.

Biz yuqorida ko`rib o`tgan yumorlardan farqli o`laroq, bu tur yumorlarda biror «jiddiy» maqsad-da`voning qo`yilishni ko`rmaymiz. Shuning uchun ham bu yumorlardan katta ijtimoiy mazmuni qidirish o`rinsiz. Halqning kulgili ertaklari, loflari ruhida yozilgan bu asarlarda giperbola va litota, qochirim va kinoya, kesatiq va turli so`z o`yinlari vositasida o`quvchilarda «loqayd» ob`ekt, «beozor» mavzu yuzasidan sof hushchaqchoq kulgi qo`zgatishgina asosiy maqsad bo`lgan: Muqimiy yumorlari ham, uning lirikasi va satirik asarlari kabi, katta muvoffaqiyat qozongan, xalq orasida tez tarqalgan, o`quvchilar tomonidan yaxshi kutib olingan. Shoirning yumoristik asarlariga qator taxlislar boglanish, naziralar bitishiini, umuman, Muqimiy ijodi ta`sirida XIX asr ikkinchi yarim va XX asr boshlarida adabiyotimizda yumorning jonlanib ketishi fikrimizga ishonchli dalil bo`la oladi.

Muhammad Aminxo`ja Muqimiyning o`zbek adabiyotining ham goyaviy-mazmunan, ham badiiy shaklan boyib, rivojlanishga, qo`sha olgan hissalarini to`grisida so`z borganida, uning mashhur «sayohatnomalar» iga alohita to`xtash zarurati tugiladi. Gap shundaki, bu tsiklga kiruvchi asarlar tub mohiyati bilan ko`p asrlik adabiyotimiz tarixida yangi va aytish kerakki, jiddiy ijobiy hodisa bo`ladi.

Hajm jihatidan ham shoirning adabiy merosidagina emas, hatto butun adabiyotda eng yirik asar bo`lgan «Sayohatnomalar» o`zining qator xususiyatlari bilan tekshiruvchi diqqatini tortadi. Birinchi xususiyati shundaki, o`tmishda mavjud bo`lgan memuartarixiy xarakterdagi prozoik sayohatnomadan farqli o`laroq, Muqimiy «Sayohatnomalar» to`la ma`nodangi poetik asardir. «Sayohatnomalar»

ning mukammal badiiy asar ekanligi bilan izohlanuvchi xususiyati shundaki, garchi ular to'rt qismdan («Qo'qondan Shohimordongacha», «Qo'qondan Forgonagacha», ikki qismlik «Qo'qogndan Isforagacha») iborat bo'lsada, biri kam pozitsion yaxlitlikni tashkil etadi. Bu qismlar umumiy qat'iylashgan ichki «qonuniyatlari»ga ega ularning umumiy yagona vazn» yagona she'riy tuzish, yagona qofiyalanish sistemasi birlashtirib turadi. Har bir qism bandlari umumiy qofiya bilan o'zaro birlashadi radif esa faqat bir qism uchun emas, balki butun asar- to'rttala qism uchun yagonadir.

Butun asar davomida bandilarni o'zaro birlatirib, ulab, ularga yaxlitlik ruhini baxsh etishda vaznning umumiyligi qatorida ana shu yagona radifning ham xizmati kattadir. «Sayohatnomalar» ning to'rttala qismi uchun umumiy xususiyatlardan yana biri bandlarning ichki tuzilishidagi yagona printsiptda ko'rinadi. Ulardagi 16 bandlik hammasi bir xil ichki qofiyalanish sistemasida bitilgan: banddagi birinchi uch misra esa bu misralarga shaklan qofiyaviy boglanmaydi. Keyingi bandlarda ham aynan shu takrorlanadi ammo ulardagi to'rtinchi misra endilikda birinchi banddagi to'rttinchi misra bilan qofiyadosh bo'lib keladi, hamma bandlarda bir radif takrorlanib keladi. Demak har bir band o'zi mustaqil, ayni zamonda ikkinchi va shu qismdagi boshqa bandlar bilan qoliplovchi to'rtinchi misra orqali, yagona radif va qofiya vositasida mustahkam bog'langan.

Muqimiy «Sayohatnomalar»i, aytilganidek, safar taassurotlarini befarq, quruq hissiz bayon etuvchi hisobot emas. U davrning ilgor farzandining ona yurt haqidagi, uning kishilari, tabiati to'g'risidagi yirik she'riy polatnadir: u mehnatsevar xalqimizning yashash sharoitlarini, ogir iqtisodiy ahvolini, qishloqlarning ayanchli, vayron hayotini realistik bo'yoqlarda badiiy tasvirlovchi adabiy hujjatlardir. «Sayohatxonalar» yaxlitligicha, liro-epik turga kiritish biryoqlamalik bo'lganidek, uni butunligicha satirik asar, deb bo'lmaydi. Sayohat tassurotlari bayoni shakli shoirga turli ijtimoiy mavzularini «kutilmagan» o'rinlarda rang-barang qirralarda ko'tarish qator muhim masalalar yuzasidan o'z histuygularini, baho yondashuvlarini «yo'l-yo'lakay» ifodalayverishi, lirik tasvir ortida «silliqqina» satirik tahlilni «ulab» yuborish, etnografiya-jo'grafiy belgilar bayonidan umumlashma sotsial hulosalarga

«birdaniga» o'tish, o'lka tabiatini madh etishni zulmkor amoldarlarni fosh etish bilan qo'yib yuborish va eng muhimi, ularning hammasini bir kompozitsion yaxlitlikka keltirish imkoniyatlarini bergan.

«Sayohatnomalar»da yagona syujet leniyalari yo'q unda to'qima badiiy obraz-persanajlar uchramaydi. Bu janrning xususiyatlari bilan to'la izohlanarli hol. Butun asar davomida izchil harakat etuvchi bayonchi obrazi-avtor obrazining favqulodda katta ahamiyati ana shu bilan belgilanadi. Hamma voqea hodisalar, baho-munosabatlar shu obraz orqali bayon etiladi. Avtor obrazi esa asar mazmuniga, tasvir rango-rangligiga to'la muvofiq holda juda murakkab bo'lib, turli qiyofaga gavdalanadi. «Sayohatnomalar»ning bandlarini birin-ketin o'qir ekansiz, biz avtor obrazida namoyon bo'luvchi yuksak fazilatli inson, vatanparvar yozuvchi Muqimiy bilan, nozik lirik Muqimiy bilan, beshafqat satirik va quvnoq yumorist Muqimiy bilan, galma-galdan va jamlangan holda uchrasha boramiz. U yaxshilikni mahullaydi, go'zallikni madh etadi, kamchiliklar ustidan kuladi, sharmandasini chiqaradi.

Avtor obrazining bosh fazilati, uning oddiy xalq vakili ekanligida ko'rinadi. U voqea-hodisalarni, ko'rgan-kechirganlarini, ijtimoi-hayot va undosh joriy tortib-qoidalarini xalq manfaatlari pozittsiyasidan baholydi, mehnatkash omma dunyoqarash nuqtai nazardan tasvirlaydi. Xuddi shuning uchun ham «Sayohatnomalar» loqayd kuzatuvchi-sayohning ter kechinmalari yigindisi bo'lib qolmagan, aksincha chuqur goyaviylik va ijtimoiylik, xalqchilik kasb etgan.

XULOSA

O'zbek adabiyoti tarixida satira va yumor janrlari muayyan an'anaga ega. U ma'lum darajada tarixiy taraqqiyot bosqichi bosib o'tgan. A. Navoiy, Bobur, Mashrab, Guxaniy, Turdi, Mahmud kabi mumtoz adabiyotimizning bir qator vakillari o'z ijodlarida bu janrning imkoniyatlaridan foydalanganlar. Ba'zilar ijodida bu janr ko'proq o'rinni egallagan bo'lsa, ba'zi, bir janrlar ijodida bu janrni izohlab o'tgan ijodkorlar juda kam uchraydi.

XIX asrga kelib bu janr satira va yumor o'zbek adabiyotining asosiy janrlaridan biriga desa bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri, bu davrga kelib janrlarning ijtimoiy, hayotga munosabati faollashdi, jamiyatda bo'ladigan, adolatsizliklarni, kamchiliklarni ko'proq qalamga olish traditsiyasi kuchaydi. Naqabil hayotni tanqid qilish adolatsiz hukmdorlarni fosh qilishni ularni insofga chaqirish orqali yaxshi turmushga erishish mumkin degan fikr bu davrda yashab ijod qilgan aksariyat tarzlarda bir edi. Bu davrda faol qalam tebratgan Muqimiy ham huddi shunday oqidaga amal qilib yashadi, ijod qildi.

Shoir jamiyatda kundalik turmushda uchrab turadigan har bir qaloqlikka munosabat bildirishga harakat qilgan. Ular ustidan kumushga va shu orqali hayotning qoiz tomonlaridan qutulishga harakat qilgan. Muqimiyning «Loy» «Qurbaqalar», «Ot» «Arava» kabi yumoristik she'rlari chinakam, hajviyotning nashrlaridan.

Muqimiy ko'p qishloqlarga safar qilib u erdagi hayot sharoiti bilan tanishgan. Qaloqliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, ularni hajviy-hazil she'rlarida kulgi ostiga olib masxaralagan.

Muqimiy o'zining «Sayohatnoma» hajviyasi va yana boshqa unlab kulgi asosiga qurilgan she'rlari orqali XIX asr o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shdi. Muqimiy ijodi mana shu xususiyati bilan qadrlil xalqimiz o'rtasida katta mavqega ega.

Muqimiy XIX asr o'zbek demokratik adabiyotida an'ana yaratgan ijodkor. Muqimiydan keyin yashab ijod etgan shoirlar bu an'anasi davom ettirmoqdalar. Yangi tarixiy sharoitda, yangicha shakllar va mazmunda rangbarang asarlar yaratib

o`z davri adabiyotini boyitdilar. Bugungi o`zbek adabiyotida yaratilgan har bir hajviy asarda Muqimiyga xos uslubiy izlanishlar borligini kuzatish mumkin. Muqimiy o`zbek adabiyotining bundan keyingi taraqqiyotida ham o`z asarlari bilan hissa qo`shish tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: O`zbekiston, 1997.-326 b.
2. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura. 1-jild.- Toshkent: O`zbekiston, 1996.-364 b.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.- Toshkent: O`zbekiston, 1996. –381 b.
4. Abdug`afurov A.Navoiy satirasi.-Toshkent: Fan, 1966. –316 b.
5. Abdullaev V. A. O`zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. Mas`ul muharrir A.P.Qayumov. - Toshkent: O`qituvchi, 1964.-384 b.
6. Abdurahmonov G`, Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1984.-160 b.
7. Abdusamatov H. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin. -Toshkent: Fan, 1995. - 183 b.
8. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. -Toshkent: O`qituvchi, 1970.-272 b.
9. Akbarova M. Alisher Navoiy g`azallarida qofiya. -Toshkent: Fan, 1993.-24 b.
10. Akromov Z.M. Navoiy va hayot – Toshkent: O`zbekiston, 1991.-24 b.
11. Badiiy ijod haqida. -Toshkent: O`zdavlatnashr, 1960.-274 b.
12. Boltabev H. Ijod va uslub. –Toshkent: Fan. 1992.
13. Vosifiy Z. Badoe`-ul vaqoe`.-Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1979.-214 b.
14. G`.Qodirov. «Muqimiy » Toshkent 1970 yil.
15. G`. Qodirov. «Muqimiy satirasi» Toshkent 1963 yil.
16. «Muqimiy tanlangan asarlar» II tom, Toshkent 1963 yil.
17. O`zbek adabiyot tarixi. Toshkent.
18. [www. o`zbek adabiyoti.com](http://www.o'zbek.adabiyoti.com)
19. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)